



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00  
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2024-yil "23" - avgust

04-27-2255-son

## Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy boshqarmalari boshliqlariga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" 2024-yil 18-iyuldagi PQ-264-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan tavsiya va namunaviy ssenariyga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "**Salom bog'cha**", umumta'lim maktablarida "**Birinchi qo'ng'iroq**" tadbirlari va "**Mustaqillik dars**" larini tashkil etilishini ta'minlashingiz hamda tadbirlar davomida quyidagilarga e'tibor qaratishingiz talab etiladi:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida joriy yilning 4-sentabr kuni "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida "**Salom bog'cha**" bayram tadbirlarini hamda "**O'zbekiston – mening Vatanim**" mavzusida ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy yilning 4-sentabr kuni "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida "**Birinchi qo'ng'iroq**" tadbirlarini hamda "**Mustaqillik darslari**"ni tashkil etish;

o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash maqsadida "**Birinchi qo'ng'iroq**" tadbirlarini 1- va 11-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazish (o'quvchilar soni va tadbir o'tish joyini hisobga olib, qolgan sinf o'quvchilarini ham tadbirga jalb etish mumkin);

tadbirni maktab hovlisi, bog'i, soya-salqin ochiq maydonlarda o'tkazish, o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash hamda maktab hududiga avtotransport vositalarini kiritmaslik choralarini ko'rish;

tadbirni chiroyli, ko'tarinki ruhda, bayramona o'tkazilishida joylardagi mahalliy hokimliklar, o'zini-o'zi boshqarish organlari, ota-onalar va huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari bilan hamkorlik qilish;


tadbirga faxriy o'qituvchilar, ota-onalar, kasaba uyushmasi, mahalla va hamkor tashkilotlar vakillarini taklif etish;

tadbir davomiyligini 45 daqiqadan ko'p o'tkazmaslik;

1-sinf o'quvchilariga "**Prezident sovg'asi**"ni mahalliy hokimliklar, o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari va ota-onalar ishtirokida topshirish;

 [info@uzedu.uz](mailto:info@uzedu.uz)



 O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirligi



 [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)



 [uzedu](https://t.me/uzedu)



 [uzedu](https://www.facebook.com/uzedu)



 [uzedu.uz](https://www.instagram.com/uzedu)

“Mustaqillik darslari”ni mehnat faxriylari, faxriy o‘qituvchilar, davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan shaxslar va taniqli sportchilar ishtirokida tashkil etish.

Shuningdek, amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini ta’minlashingiz so‘raladi.

*Ilova\_\_varaqda.*

**Vazir o‘rinbosari**



**F.Boqiyev**